

Ogohlik – davr talabi

// 26 August 2021 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ogohlik-davr-talabi>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi "Jizzax plastmassa" aksiyadorlik jamiyatida tashkil etilgan press-tur doirasida "Ogohlik – davr talabi" mavzusida korxonada yosh xodimlari ishtirokida davra suhbatlari o'tkazildi.

Tadbirda "Jizzax plastmassa" AJ boshqaruv raisi, "Jizzax plastmassa" AJ yoshlar yetakchisi, Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi mas'ul xodimi, "O'zkimyosanoat" AJ yoshlar yetakchisi hamda jurnalist va blogerlar ishtirok etishdi.

Davra suhbatlari juda qizg'in savol-javoblarga boy bo'ldi. Unda yoshlarni ogohlikka, muqaddas zaminimizni asrashga chorlandi. Davra suhbatlari so'ngida yoshlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar tinglandi hamda ular tomonidan berilgan savollarga mutaxassis tomonidan javob berildi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati